



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Adxamov Samariddin Ikromjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali o'qituvchisi

“MOLIYAVIY NATIJALAR TO'G'RISIDAGI HISOBOT”NI MHXS LARGA  
MOSLASHTIRISH MUAMMOLARI

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga o'tish davrida “Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot”ni MHXS lar asosida tuzishda, Respublikamizdagi BHMS lari va ulardagi ko'rsatkichlarni MHXS larga moslashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Moliyaviy hisobot, daromad, xarajat, operatsion faoliyat, davr xarajatlari, moliyaviy faoliyatdan daromad, asosiy xo'jalik faoliyati.

**Kirish.** Dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining integratsiyalashuvi va mamalakatlar tomonidan faol investetsiya siyosatini qo'llanilishi, ishonchli, real va hamma uchun birdek tushunarli bo'lgan moliyaviy axborotlarga bo'lgan talabning yuqoriligini ko'rsatadi. Bunday turdagi axborotlar asosan buxgalteriya hisobi ishining natijasida vujudga keladi va moliyaviy hisobotlar ko'rinishida axborot istemolchilariga taqdim etiladi. Biz bilamizki, buxgalteriya hisobining pirovard natijasi (yakuni) bu moliyaviy hisobotlar bo'lib hisoblanadi. Chunki bu moliyaviy hisobotlarda xo'jalik so'b'yektlarning moliyaviy xo'jalik faoliyatining xolati va faoliyatning natijalari o'z aksini topgan bo'ladi. Moliyaviy hisobotlarning asosiy vazifasi o'z o'rnida ichki va tashqi axborot foydalanuvchilarini real moliyaviy axborotlar bilan ta'minlash bo'lib hisoblanadi.

Moliyaviy axborotlar hamma uchun birdek tushunarli bo'lishi uchun moliyaviy hisobot Moliyaviy hisobot xalqaro standartlariga (MHXS) asosan tuzishni taqazo etadi. Jumladan respublikamizda amalda bo'lgan moliyaviy hisobotning 2-sonli shakli “Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot” ni ham moliyaviy hisobot xalqaro

standartlari bo'yicha tuzish muhimdir. Chunki ushbu hisobot shaklida axborotlarning istemolchilari uchun muhim bo'lgan moliyaviy axborotlar yoritiladi. Amaldagi hisobotni moliyaviy hisobot xalqaro standartlari asosida tuzilgan hisobotga moslashtirish orqali hamma uchun birdek tushunarli bo'lgan daromad, xarajat, foyda (zarar) lar to'g'risidagi axborotlar muhitini yaratishimiz mumkin. Bu orqali xorijiy investorlarni zarur axborot muhiti bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, potensial investorlarning korxonalariga bo'lgan qiziqishlarini oshirish mumkin bo'ladi. Bundan ko'rinadiki moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini takomillashtirish respublikamizdagi mavjud dolzarb muammolardan biri bo'lib hisoblanadi.

**Tadqiqotning metodologiyasi.** Tadqiqot ishida O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Prezident farmonlari va ma'ruzalari, Moliya vazirligining buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlari va yo'riqnomalar xalqaro konseptual qoidalarga hamda MHXSlariga taqqoslash metodi, mantiqiy tahlil, tahlil va sintez usullaridan foydalanildi, SVOT tahlili orqali amaldagi tizimning kamchiliklari va yutuqlari e'tirof etildi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning asosiy me'yoriy hujjati bo'lib, "Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari" [1] hisoblanadi. Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari barcha standartlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi. U buxgalteriya hisobi bo'yicha standartlarning yuragi va asosiy mezoni bo'lib hisoblanadi. Ular moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim qilishning asosiy prinsiplarini belgilab beradi. Konseptual asoslar standartlar o'rnini bosmaydi. Shu bilan bir qatorda O'zbekiston respublikasi buxgalteriya hisobining 3-sonli milliy standarti (BHMS) "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" ham respublikamizda amal qilinadigan eng asosiy me'yori hujjat bo'lib hisoblanadi. Ushbu "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonunda bayon qilingan umumiy qoidalarga muvofiq ravishda moliyaviy hisobotning 2 – sonli shakli "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" ni tuzish va taqdim etishlari uchun moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning moddalarini hamda uning tasnifini bayon qilib berish hisoblanadi. Mazkur standart mulk shaklidan qat'i nazar barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan moliyaviy natijalar to'g'risida hisobotni tayyorlashda qo'llaniladi. Ushbu standartda "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" da mavjud atamalar va moddalarga tavsif berib o'tilgan, shuningdek standartda "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" da ochiqlanishi zarur bo'lgan axborotlar bayon etilgan. Ushbu me'yoriy hujjatlar urganilganda moliyaviy hisobotning xalqaro standarti asosida tuzilgan hisobot va respublikamizda amalda bo'lgan buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida tuzilgan hisobot bir biridan farq qiladi. Ushbu standartlarda yoritilgan atamalar va moddalar, va urganilgan adabiyotlardagi olimlarning mulohazalari "Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot" ga bo'lgan yondashuvlarga yangicha yondashishni hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishda va ushbu hisobot shaklini xalqaro standartlarga moslashtirishni taqozo etadi.

**Tahlil va natijalar.** Mamlakatimizda Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni tuzish va taqdim etish 1-son BHMS “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot”, 2-sonli BHMS “Asosiy xo‘jalik faoliyatidan tushgan daromadlar”, 3-son BHMS “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot” standartlari bilan tartibga solib boriladi. 1-son BHMS “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” standartida va 1-son BHXS da moliyaviy natijalar (foyda yoki zararlar va boshqa umumlashgan daromadlar) to‘g‘risidagi hisobotda taqdim etilishi lozim bo‘lgan axborotlarda farqlar mavjud. Quyidagi jadvalda ushbu standartlardagi moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotda taqdim etilishi lozim bo‘lgan axborotlar farqlarni ko‘rsatilgan.

**1-jadval**

**Moliyaviy natijalar (foyda yoki zararlar va boshqa umumlashgan daromadlar) to‘g‘risidagi hisobotda taqdim etilishi lozim bo‘lgan axborotlarning BHMS va MHXS bo‘yicha farqlari**

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot (BHMS)	Foyda yoki zararlar va boshqa umumlashgan daromadlar to‘g‘risidagi hisobot (BHXS)
Realizatsiyadan tushgan mablag‘	Odatdagi faoliyatdan olinadigan daromad
Operatsiya faoliyatining natijalari	amortizatsiyalangan qiymat bo‘yicha hisobga olinadigan moliyaviy aktivlarni tan olishni to‘xtatishdan yuzaga keladigan foyda va zararlar;
Moliyaviy faoliyat natijalari	Moliyaviy xarajatlar;
Favqulodda foydalar va zararlar	ulush bo‘yicha hisobga olish usuli bo‘yicha hisobga olingan qaram tadbirkorlik sub’yektlarining va qo‘shma korxonalarining foyda yoki zararidagi ulushi;
Shu davrdagi sof foyda yoki zarar	agar moliyaviy aktiv qayta tasniflanib, haqqoniy qiymat bo‘yicha hisobga olinadigan bo‘lsa, oldingi balans qiymati bilan uning qayta tasniflash sanasidagi haqqoniy qiymati o‘rtasidagi farqdan yuzaga keladigan har qanday foyda yoki zarar
	Soliq xarajati;

*MHXS lar asosida muallif ishlanmasi*

Ushbu jadvaldan kurinadiki “Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot”da milliy standartlar va xalqaro standartlarda taqdim etilish lozim bo‘lgan axborotlarda jiddiy farqlar mavjud ushbu farqlarni bartaraf etish uchun mamlakatimizda:

**Birinchi**dan, bizning fikrimizcha, MHXSlar tartibiga o‘tishimiz munosabati bilan, biz buxgalteriya hisobini tartibga solishda qo‘llaniladigan “Xarajatlar tarkibi to‘g‘risidagi” Nizomni tubdan qayta ko‘rib chiqish kerak, chunki ushbu hujjat

bevosita xarajatlarni tartibga solidi va xarajatlar “Moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobot” elementi bo’lib hisoblanadi. Nizom qoidalari bugungi kun talablariga muvofiq kelmaydi, undagi ayrim moddalar standartlar qoidalaridan chetlashgan. Masalan, “Asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar (operatsiya daromadlari)” ko’rsatkichi nomlanishi MHXS asoslarga muvofiq emas. Asosiy faoliyatdan boshqa daromad bo’lmaydi, asosiy faoliyatdan olingan barcha daromadlar tushumlar tarkibiga kiradi. Konseptual asoslarda keltirilganidek, ushbu ko’rsatkich “asosiy bo’lmagan faoliyat natijasida yuzaga keladigan daromadlar” yoki “boshqa daromadlar” deb atalishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

**Ikkinchidan**, “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish uchun konseptual asos”larda “yalpi daromad” atamasidan foydalanilgan, lekin ushbu atamaga tavsif berilmagan. Yalpi daromad emas, “daromad” atamasidan foydalanilsa va ushbu atamaga tavsif keltirilganda maqsadga muvofiq bo’lar edi. Konseptual asoslarda moliyaviy hisobotning asosiy elementi hisoblangan “daromadlar”ga ta’rif keltirilmagan. Bundan tashqari konseptual asoslarda asosiy faoliyatdan olingan daromadlar tarkibiga “boshqa aktivlarni realizatsiyasidan” olingan daromadlar kiritilgan. Bu xalqaro standartlardagi qoidalarga muvofiq emas, deb o’ylaymiz. Xalqaro standartlarda “oborotdan tashqari aktivlarni tasarruf qilishdan olingan foyda” boshqa daromadlar tarkibiga kiritilgan. Shu bois, “boshqa aktivlar realizatsiyasi” tushunchasini ochiqlash kerak bo’ladi. Ta’kidlash lozimki, konseptual asoslarda “asosiy bo’lmagan faoliyat natijasida olingan daromad”, ya’ni “boshqa daromad”lar tarkibi to’liq shakllantirilmagan, faqat birjada qimmatli qog’ozlar qayta baholanishi natijasida olingan daromadlarni ta’kidlash bilan chegaralangan.

**Uchinchidan**, bugungi kunda 2-sonli BHMS “Asosiy xo’jalik faoliyatidan tushgan daromadlar” standartini yangi tahrirda qabul qilish zaruriyati mavjud. Bizga ma’lumki, Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari bo’yicha Kengash 18-son BHXS “Tushumlar” va 11-son BHXS “Qurilishdagi shartnomalar” standartning qoidalari davr talablariga javob bera olmayotganligini hisobga olib MHXS va AQShdagi GAAP qoidalarini umumlashtirish asosida tushumni tan olish prinsiplarini belgilovchi yagona 15-son MHXS “Xaridorlar bilan shartnomalar bo’yicha tushum” standartini ishlab chiqdi. Bizda amalda bo’lgan 2-sonli BHMS asosan oldin amalda bo’lgan 18-son BHXS “Tushumlar” standarti talablari asosida ishlab chiqilgan edi. Bundan tashqari, standartda “asosiy xo’jalik faoliyatidan tushgan daromadlar” atamasiga emas, “daromadlar” va “tushumlar” atamalariga ta’rif keltirilishi maqsadga muvofiq, chunki odatdagi faoliyatidan olingan daromadlar (asosiy daromadlar) va odatdagi bo’lmagan faoliyatdan olingan daromadlar (boshqa daromadlar) ham “Moliyaviy natijalar to’g’risidagi hisobot” ning elementi sifatida talqin qilinishi talab etiladi.

**Xulosa va takliflar.** Ushbu tadqiqot natijalarida quyidagi xulosalarni keltirishimiz mumkin:

1. MHXS asosida tuzilgan foyda va zararlar to’g’risidagi hisobot bir qancha xususiyatlarga ega. Hisobotda tadqiqot va ishlanmalar xarajatlari operatsion xarajatlar tarkibiga kiritilmasdan, alohida modda sifatida qayd qilinmoqda.

Operatsion bo‘lmagan faoliyat natijalari alohida ko‘rsatilgan. Bu foydalanuvchilarda operatsion faoliyati va operatsion bo‘lmagan faoliyati natijalarini bir-biridan aniq farqlagan holda ko‘rish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Aksiyaga foyda ko‘rsatkichi axborot tariqasida keltirilgan, bu esa hisobotning foydaligini oshiradi.

2. Moliyaviy hisobotni tuzishda moliyaviy natijalarning yuzaga chiqishi va shakllanishi bo‘yicha hisob qatoriga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘lanuvchanligini belgilash lozim. Moliyaviy natijalarning shakllanishi bo‘yicha moliyaviy hisobotda faqat jamlangan ma‘lumotlarga aks yetmog‘i lozim. Ularning yuzaga chiqish o‘rni va shakli bo‘yicha alohidalashgan shartli moliyaviy hisobotga tushuntirishlarda berilishi lozim. Shuningdek, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot ma‘lumotlarida o‘tgan yil darajasini taqqoslash bazasi sifatida ola olmaymiz. Sababi, ular o‘zaro taqqoslash asosiga keltirilmagan. Shu ma‘noda o‘tgan yilning shu davri bo‘yicha ma‘lumotlarni yil bo‘yicha jamlangan ko‘rsatkich sifatida, hisobot yilining shu davridagi ma‘lumotlarini esa chorak bo‘yicha ko‘rsatkichlar tartibida yuritish maqsadli hisoblanadi. Bu yesa hisob kitoblarni ancha osonlashtiradi va ularning o‘zaro bog‘lanuvchanligini ta‘minlaydi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Konseptualnye osnovy finansovoy otchetnosti. [https://nrm.uz/contentf?doc=470813\\_konseptualnye\\_osnovy\\_finansovoy\\_otchetnosti](https://nrm.uz/contentf?doc=470813_konseptualnye_osnovy_finansovoy_otchetnosti)
2. IFRS - Peresmotrennyye Konseptualnye osnovy MSFO (2018). <https://fin-accounting.ru/articles/2018/ifrs-revised-conceptual-framework-for-financial-reporting-2018>
3. 2-son BXMS “Asosiy xo‘jalik faoliyatidan tushgan daromadlar”. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirgi tomonidan 26.08.1998 da qayd etilgan, № 483
4. S.N.Tashnazarov. Moliyaviy hisobotning xalharo standartlari: Oliy o‘quv yurtlari magistratura mutaxassisliklari uchun darslik. – Toshkent: 2019.